

SURXON VOXASI AXOLISI OG‘ZAKI IJODIDA ALLA QO‘SHIG‘INING O‘RNI

Axmedova Gulchexra O‘skinovna

Termiz davlat universiteti

Jaxon tarixi kafedrası dotsenti.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14552708>

Annotatsiya. Ushbu maqolada xalq og‘zaki ijodidagi alla qo‘shiqlari folklor jamoalarning ijrosida aytilib kelinayotgan alla va uning yosh bolalar tarbiyasidagi o‘rni shuningdek, boshqalar haqida ma‘lumotlar keltirilgan.

Kalit so‘z: “yig‘i-sig‘ilarga”, “huvdi” yoki “huvva, huv”, jo‘shqin, muloyim, maftunkor, sehrli, hushyorlik- ogohlik.

THE PLACE OF ALLA'S SONG IN THE ORAL CREATION OF THE SURKHAN VOXAS POPULATION

Abstract. This article presents information about the alla songs in the oral culture of the people, their role in the upbringing of young children, as well as others.

Keywords: "to the weeping-sighing", "huvdi" or "huvva, huv", passionate, gentle, charming, magical, alertness-awareness.

РОЛЬ ПЕСНИ АЛЛЫ В УСТНОМ ТВОРЧЕСТВЕ НАСЕЛЕНИЯ СУРХАНСКОЙ ВОКСА

Аннотация. В статье содержатся сведения о песнях аллы народного творчества, исполняемых фольклорными коллективами, и ее месте в воспитании детей раннего возраста, а также другие сведения.

Ключевые слова: «кричащий», «хувди» или «хувва, хувва», живой, нежный, обаятельный, волшебный, бдительность-сознательность.

Voha aholisining og‘zaki ijodi o‘zining betakrorligi bilan ajralib turadi. Voha aholisi og‘zaki ijodiyoti aytilish marosimi, o‘rni, ma‘no va mazmun xususiyatlariga ko‘ra qo‘yidagi guruhlariga bo‘lish mumkin:

Alla. Ona yuragidan tabiiy yaralgan alla insoniyat paydo bo‘lgandan buyon rivoj topib, yuksalib, yangi-yangi maftunkor jilolanib, o‘zining ma‘naviy qudrati bilan odamzodning ulug‘likka chorlab kelayotgan buyuk qo‘shiqdir. Xalq og‘zaki ijodiyotida, uning bag‘rida rang-barang turlar bo‘lib, bir-biriga o‘xshamaydigan, biroq jo‘shqin, muloyim, maftunkor, sehrli, hushyorlik- ogohlikka chorlovchi kuchli, qudratli ohangdir. “Alla” aytish maxsus o‘rgatilmaydi, u har bir ona yuragidan o‘ziga xos usulda baralla, xursandchilik, sokin, shiddatli, mungli, qayg‘uli, olqish, alqash ohanglarida aytiladi. Xalq asrlarosha allani takomillashtirib, unga xos sayqallar berishgan, ko‘pincha lapar aytuvchilar to‘y va marosimlarda, xalq davrasida allalarni ham maxsus ijro etib, aytib kelishgan. Laparchilar allani turli usullarda, ohanglarda aytib kelgan va kelmoqda, shu tariqa allalar dostonlarda, termalarda, matallarda, xalq qo‘shiqlarida o‘zini namoyon qilib borgan. “Alla” – qadimiy, milliy xalq qo‘shig‘i, u ibtidoiy davrlardan beri mavjud, Yer yuzida odam va ona paydo bo‘libdiki, alla bor, bola bor joyda “Alla” aytilishi tabiiy. “Alla” so‘zini keksalarimiz muqaddas Alloh so‘zidan olingan va Yaratgandan chaqaloqni o‘z panohida asrashni iltijo qilishga nisbat berib, qutlug‘, qadrli, qimmatli qo‘shiq deb hisoblaydi,. allalarda xalq turmushining juda ko‘p qirralari o‘z in‘ikosini topgan.

Onalar qadimdan o'z bolalari tepasida kechasi bo'lsin, kunduzi bo'lsin alla aytib kelishgan.

“Alla” o'z ohangi bilan bolaga ona nafasini yetkazib turadi, go'dakni xotirjam qiladi, elitadi, orom olib uxlashiga imkon beradi.

Surxon vohasning hamma qishloqlarida “Alla” qo'shig'i keng tarqalgan bo'lib, keksalarning aytishlariga ko'ra “alla eshitgan bolaning dunyoqarashi keng doirada bo'ladi, u ruhan va jismonan baquvvat bo'ladi”. “Alla”ning o'z ohangi, o'z kuyi, o'z xirgoyi yo'li bor, yaratilish asoslari va dramaturgiyasi qo'shiqning ma'nosida va ona nafasida jamuljamdir. Chunki, “Alla”lar onaning farzandga bo'lgan mehru - muhabbati, umid va orzulari, ko'nglidagi yaxshi niyat, ezgu tilaklarini ifodalash bilan birga uning ruhiy kechinmalari, iztirob va boshidan kechirganlarini ham ifodalaydi. Shu tarzda ayrim “Alla”lar shakl jihatdan murakkab, ohangi, kuyi rivojlangan, ijro uslubi “yig'i-sig'ilarga” o'xshash va yaqin bo'lishi mumkin. Boysun hududlarida “Alla” qo'shiqlari “huvdi” yoki “huvva, huv” nomi bilan ham yuritiladi.

Faqat ayollar emas, goho erkaklar ham ijro etadigan “Alla” ko'pincha yakka tarzda badiha shaklida namoyon bo'ladi. “Alla” qo'shiqning qadimiy turi bo'lib, farzandni uxlatish, orom oldirish uchun beshikka belab, belanchakka solib, tebratib, onalarning allalab kuylaydigan qo'shig'idir.

Qo'shiqning bu turi ham cholg'u jo'rligisiz mayin orom beruvchi ohang bilan kuylanadi.

Uning kuy tuzilishi, rivoji, uslubi va ritmik holatlari erkindir, badihago'ylikka asoslangan (ijrochi – ona o'zi kuy, so'z matni va ijro uslubi muallifidir). “Alla” qo'shig'i o'zbek musiqa merosida katta ahamiyat kasb etadi, go'dak ruhga halovat keltiruvchi bu qo'shiq asrlar osha sayqal topib kelmoqda. “Alla”larga onalar o'z his-tuyg'ulari, orzu-armonlari, istak-niyatlarini, dard-xasratlarini ham qo'shib aytganlar: “Alla”lar ijtimoiy estetik qimmatiga ko'ra ikki vazifani bajaradi: birinchisi - uning tarbiyaviy-estetik mohiyat kasb etishida ko'zga tashlanadi. Bu uning emotsional ta'sirchanligidan kelib chiquvchi xususiyati bo'lib, bolani kuy og'ushida hayot bilan tanishtirish, ohanglar vositasida hayot ma'nosini anglashiga yo'l ochish, shu zaylda estetik didini shakllantirish va o'stirish maqsadiga qaratilganligidir¹. Buyuk qomusiy olim Abu Ali ibn Sino “Alla”ning shu xususiyatini ming yillar ilgariyoq payqab, shunday yozgan edi: “...bolaning mijozini kuchaytirmoq uchun unga ikki narsani qo'llamoq kerak. Biri – bolani sekin - asta tebratish, ikkinchisi uni uxlatish uchun aytish odat bo'lib qolgan musiqa va allalashdir. Shu ikkisini qabul qilish miqdoriga qarab bolaning tanasi bilan badan tarbiyaga va ruhi bilan musiqaga bo'lgan iste'dodi hosil qilinadi”. “Alla”ning ikkinchi vazifasi – bolalarni uxlatish; aslida “Alla” so'zining lug'aviy ma'nosi ham “ovutib”, “avaylab” bolani uxlatishdan iborat.

“Alla”lar odatda bolaning emizikli davridan to uch yoshni to'ldirgunlarigacha aytiladi., qolaversa, bolaning yoshiga qarab, uning ohangi o'zgarib boradi va turlicha kuylanadi. “Alla”lar onalarning minglab ajdodidan ming yillar davomida avlodlarga asta-sekin o'tib, qayta ishlanib, har bir davr xususiyatlarini o'ziga singdirib, onalik mehrini, armonini ifodalab kelgan.

Shu jumladan, Surxon vohasida “Alla”larning o'ziga xos, ajoyib namunalarini onalarimiz tomonidan ijro etilgan. Allalarni onalar dunyosisiz sezgilarisiz, tashvishlarisiz tasavvur etib bo'lmaydi, biroq bularning barchasi instingtiv tug'ma sezgirlik tarzida emas, balki, ming yillar davomida yashagan onalarning necha-necha avlodlari yaratgan hayot tajribalari sifatida, ularning

¹ Alisher Navoiy. Xamsa. Toshkent, 1960, 277-b

qanchadan-qancha yanglishuvlari, ajralishlari, kuyinishlaridan tug'ilgan achchiq saboq sifatida yuzaga kelgan. Shu ma'noda allalar "onalarning instingtiv faoliyati natijasi bo'lmay, balki ijtimoiy tajribalar, ijtimoiy ong mahsuli"² hisoblanadi. Ular ona-shoira bilan ishchi-tarbiyachining bir siymoda birlashgan vaqtida, asl, o'lmas poeziya sifatida hamma adabiyotlarning boshlang'ichi bo'lib vujudga kelganlar³.

Zotan, allalarda onalik mehru saxovati, dardu iztiroblari, orzu armonlari, sevgi-yu hijronlari, quvonchu o'kinchlari, ayriliqu aldanishlaripog'onama-pog'ona silsilaviylikda o'sib boradi. Buni rus allashunosligi onalik tuyg'ularining uch bosqichi sifatida xarakterlab, ularni bir-biridan shunday ajratib ko'rsatadiki⁴, bu holni o'zbek allalarida ham ko'rish mumkin. Alla – go'dak (bola)ni uxlatishda yakka usulda, mayin ohang va past ovoz bilan aytiladigan qo'shiq.

Dunyodagi har bir xalqning o'z allasi bor. Turkiy xalqlar, xususan o'zbeklar ham qadim-qadimdan bolaning nafaqat tanasi, balki ruhiy olami – ma'naviyati ham sog'lom bo'lishiga alohida e'tibor qaratishgan. Ajdodlar bola ko'nglining sog'lom va toza bo'lib shakllanishida beshikdalik paytida eshitgan allasi muhim o'rin tutishini juda yaxshi bilishgan. O'zbek onalari tilidan aytilgan allalarda uning orzusi, to'kis odam haqidagi ideali aks etgan deyish mumkin. O'zbek allasida ona qalbining harorati, tilaklarining samimiyati va bolasiga chin insoniy sifatlar yor bo'lishini istashidagi haqqoniyat mavjud. Alla matnini chaqaloq (bola) tushunmasligi mumkin, lekin alla mohiyatiga singdirilgan ona muhabbatini, undagi shukronalik tuyg'usini ko'ngli bilan his qiladi.

Allada onaning mehr-muhabbati bilan birga uning quvonchi, g'ururi, ayni chog'da dardi, alami, o'kinchi, orzu-armonlari ham o'z ifodasini topishi mumkin. Ma'lumki, har qanday ona oilasini farzandi uchun asraydi-ardoqlaydi. Ona qalbidagi shukronalik hissi bilan unga berilgan eng oliy ne'mat farzandi uchun Xudodan jamiyki yaxshi sifatlarini so'raydi va buni allasida mujassamlashtiradi. Alla bolani uxlatishga qaratilgani bois bir maromdagi ovoz va ohang tanlanadi. Eng qizig'i, bunda onaning musiqiy iste'dodga va shirali ovozga ega bo'lishining ahamiyati yo'q. Tibbiyot olimlarining aniqlashicha, alla bola miyasining o'ng yarim sharini harakatga keltirib, aqliy faollikka turtki beradi va diqqatni oshiradi⁵.

Mutaxassislar umumiy ruhiy siqilish sindromi, nafas olish ritmi buzilishi, yurak qisqarishi chastotasining kamayishi (bradikardiya), ichaklar motorikasidagi muammolar, muddatidan erta tug'ilish va kichik vaznga ega bo'lish bilan kechadigan perinatal ensifalopatiya (bosh miya funksiyasi yoki tuzilmasi buzilishi)ga chalingan bolalarga alla aytishni tavsiya etishadi. Alladagi o'ziga xos ohang, ritm, harakat va nutq buzilishlari (a'zolar uchishi, duduqlanish, harakatlarning o'zaro nomuvofiqligi) oldini olishga yordam berishi tajribalarda aniqlangan. Alla aytish ona salomatligi uchun ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi va tug'ruqdan so'ng tez tiklanishga yordam beradi.

Tibbiy kuzatuvlarga ko'ra, go'dagiga alla xirgoyi qilib turadigan ayollarning ko'kragiga sut kelishi ko'payarkan. Shifokorlarning onalarga bolani emizgandan so'ng kuniga 2-3 marta alla aytib turishni tavsiya qilishlariga aynan mana shu omil sabab bo'lgan.

² Мельников М.Н. Русский детский фольклор Сибири. С. 37. 1970.

³ Горький М. Адабиёт ҳақида. Тошкентб 1967. 339- 6

⁴ Ветухов А. Народные колыбельные песни. М., 1892, с. 131.

⁵ С.Н.Турсунов ва бошқалар. Ўзбекистонда бахшичилик санъатининг шаклланиши ва тараққиёти тарихи "Fan va texnologiya" 2014

Alla boladagi turli hissiyotlarga va ongiga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Tadqiqotlar alla aytilayotgan paytda bola miyasining turli sohalaridagi biologik potentsiallariga sinxron ravishda ta'sirlanishini ko'rsatgan. Allani bemalol sog'lomlashtiruvchi ijobiy psixoterapevtik ta'sirga ega, deyish mumkin. Agar alla chaqaloqqa dastlabki kunlaridanoq aytilsa, uni turli kasalliklardan himoya qilib, vujudining kuchga to'lib borishiga xizmat qiladi.

REFERENCES

1. Allaviya M. O'zbek xalq marosim qo'shiqlari. Toshkent: "Fan" 1974.
2. Naimov M. Surxon qo'shiqlari. I - qism. – Termiz: Jayhun, 1997.
3. Safarov O. Alla-yo alla. Toshkent, 1999 yil.
4. Tursunov S. va boshq. Surxondaryo – etnografik makon. –Toshkent: Akademnashr, 2012.
5. Habibullo o'g'li, R. M. (2023). SURXON VOHASI TOQCHI QAVMINING AN'ANAVIY TURMUSH TARZI.
6. To'Rayev, S. G. O. G. L., & Raxmonov, M. X. O. G. L. (2022). BX KARMISHEVA TADQIQOTLARIDA SURXON VOHASI YUZ URUG'LARINING ETNIK TAVSIFI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(1), 43-51.
7. Рахмонов, М. (2023). Surxon vohasi toqchi qavmlari hududiy joylashuvining ilmiy tahlili. *История и культура центральной Азии*, 1(1), 341-344.
8. Rahmonov, M. (2023). TRADITIONAL LIFESTYLE OF THE TOKCHI PEOPLE OF SURKHAN OASIS. *Modern Science and Research*, 2(4), 720-722.